



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

O‘ZBEKISTONNING INVESTISION IMKONIYATLARI: ASOSIY TENDENSIYA VA NATIJALAR

ИНВЕСТИЦИОННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ УЗБЕКИСТАНА: ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И РЕЗУЛЬТАТЫ

INVESTMENT OPPORTUNITIES OF UZBEKISTAN: MAIN TRENDS AND RESULTS

Mamatov Baxadir Safaraliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, DSc

ORCID: 0009-0004-6227-5103

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonning investitsiya imkoniyatlari o‘rganilgan, tavsiflangan va unday foydalanishning ahamiyati yoritilgan. 2021-2025-yillarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar dinamikasi hamda asosiy kapitalga yo‘naltirigan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi tahlil qilingan va ularning o‘zgarish dinamikasi bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, investitsiya muhiti, investitsiya imkoniyatlari, investision salohiyat, risk, xorijiy investitsiyalar, xorijiy kreditlar, asosiy kapital, iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish sanoati, eksport, modernizatsiya, texnologiya, investitsiya siyosati.

В статье исследуется, описывается и подчеркивается важность использования инвестиционных возможностей Узбекистана. Анализируется динамика инвестиций в основной капитал и объем иностранных инвестиций и займов в основной капитал в 2021-2025 годах, делаются научно обоснованные выводы о динамике их изменений.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, инвестиционные возможности, инвестиционный потенциал, риск, иностранные инвестиции, иностранные займы, основной капитал, экономические сектора, обрабатывающая промышленность, экспорт, модернизация, технологии, инвестиционная политика.

This article explores, describes, and highlights the importance of capitalizing on Uzbekistan's investment opportunities. It analyzes the dynamics of fixed capital investment and the volume of foreign investment and loans in fixed capital in 2021-2025, drawing scientifically substantiated conclusions about the dynamics of these changes.

Key words: investments, investment climate, investment opportunities, investment potential, risk, foreign investments, foreign loans, fixed capital, economic sectors, manufacturing industry, export, modernization, technology, investment policy.

Jahon iqtisodiyotida geosiyosiy o‘zgarishlar, ta‘minot zanjirlarining qayta shakllanishi va yangi bozorlarni izlash jarayonlari kuchaymoqda. Bunday sharoitda O‘zbekiston Markaziy Osiyoda barqaror va istiqbolli investisiya yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta‘kidlanganidek, so‘nggi to‘qqiz yilda iqtisodiyot tarmoqlariga 130 mlrd dollar xorijiy investisiya jalb qilingan, joriy yilda esa 140 mlrd dollarlik yangi investisiya kelishuvlariga erishilgan va kelgusi yilda 50 mlrd dollar jalb qilish rejalashtirilgan [1]. Bu holat mamlakatning investision imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarbligini oshiradi.

So‘nggi yillarda valyuta liberallashtirilishi, soliq islohotlari, erkin iqtisodiy zonalarning kengayishi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi investisiya muhitini sezilarli darajada yaxshiladi. Investitsiyalar asosan sanoat va to‘qimachilik, energetika (quyosh va shamol loyihalari), qurilish va infratuzilma, turizm (Samarqand va Buxoro), axborot texnologiyalari

sohalariga yo‘naltirilmoqda. Ushbu tarmoqlardagi natijalar iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni baholash imkonini beradi.

Investisiyalar yangi ish o‘rinlari yaratish, eksportni kengaytirish, texnologik yangilanish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, investision siyosat samaradorligini baholash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

U.F. Sharp, G.Dj. Aleksandr va D.V. Beyli investisiya muhitini asosan qimmatli qog‘ozlar likvidligi va daromadliliqi orqali tavsiflaydi [2]. Bu yondashuv rivojlangan kapital bozorlari uchun xos bo‘lsa-da, investisiya muhitining makroiqtisodiy, huquqiy va institusional omillarini to‘liq qamrab olmaydi.

D. Pestov investisiya jozibadorligini baholashda ichki, tarmoq va mintaqaviy omillarni hisobga olish, kutilayotgan daromad, risk va rivojlanish istiqbollari tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi [3]. Ushbu yondashuv investisiya muhitini kompleks baholashga mos keladi.

Straxova esa mintaqaning investisiya jozibadorligini kapital oqimi intensivligi va investisiya faoliyati bilan bog‘lab, uni investisiya salohiyati va risk darajasi orqali belgilaydi [4].

Mahalliy iqtisodchi-olimlardan Sh.Mustafakulovning monografiyasida “investitsiya muhitini har tomonlama, chuqur tahlil qilinishi asnosida investitsiya tavakkali baholanadi va aniqlanadi. Investitsiya muhiti va tavakkal darajalari bir-biriga teskari nisbatdadir” [5]. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investorning tadbirkorlik tavakkali shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan bo‘lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.


Investision imkoniyat — bu kompaniya yoki iqtisodiy tizimning moliyaviy resurslarni samarali joylashtirish orqali rivojlanish va daromad olish salohiyatidir. U kompaniyaning mavjud va kelgusida jalb etilishi mumkin bo‘lgan investisiya resurslari hamda ulardan faoliyatni kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror daromad shakllantirish qobiliyatini ifodalaydi. Investisiya imkoniyatlari kompaniyaning moliyaviy holati, boshqaruv salohiyati va bozor sharoitiga bog‘liq bo‘lib, likvidlik va rentabellik kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, investisiya qarorlari firmaning bozor qiymatiga ta’sir ko‘rsatadi: samarali sarmoyalashtirish yuqori baholanadi, ortiqcha yoki past sarmoya esa salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Investisiya imkoniyatlarini baholashda risk, samaradorlik va investor maqsadlarini hisobga olgan kompleks yondashuv talab etiladi.

O‘zbekistonning investision imkoniyatlari mamlakat iqtisodiyotining turli sohalariga sarmoya kiritish uchun mavjud resurslar, bozor salohiyati va huquqiy kafolatlar majmuini anglatadi. Geografik joylashuvi Markaziy Osiyo markazida bo‘lib, qo‘shni davlatlar orqali yirik bozorlarga chiqish imkoni mavjud. Tabiiy resurslar (oltin — Muruntau koni, tabiiy gaz, neft), qishloq xo‘jaligi (paxta, g‘alla, meva-sabzavot), qayta tiklanuvchi energiya (quyosh va shamol) hamda sanoat salohiyati mamlakat investision jozibadorligini oshiradi. Energetika, neft-gaz kimyosi, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi, turizm va IT sohaları ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

Qonunchilikdagi imtiyozlar, maxsus iqtisodiy zonalardagi yengilliklar, valyuta liberallasuvi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratmoqda. Ta’kidlanganidek, “kelgusi besh yilda 180 mlrd dollarlik xorijiy investisiya hisobidan 1 mln yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratiladi” [6].

2025 yilda iqtisodiyotga jalb qilingan xorijiy investisiyalar hajmi 43,1 mlrd dollarga yetdi, investisiyalarning YaIMdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etdi [7]. Mamlakatning suveren reytingi “BB -”dan “BB”ga ko‘tarildi, Jahon bankining texnologik yetuklik indeksida O‘zbekiston 71 pog‘ona yuqori ko‘tarildi.

2021-2025-yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi tahlili bir nechta muhim ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi (1-rasm):



1-rasm. 2021-2025-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi [8]

Birinchidan, 2021–2025 yillarda qurilish ishlari, uskunalarni montaj qilish, mashina va transport vositalarini sotib olish hamda boshqa kapital xarajatlar qariyb 2,5 barobarga oshdi. Bu mamlakatda modernizatsiya, texnik yangilanish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish jarayonlari faollashganini, investision faollik kuchayganini hamda uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish uchun asos yaratilganini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, mazkur o‘shish yangi sanoat korxonalari barpo etilishi, mavjud quvvatlarni kengaytirish va infratuzilma ob'ektlarini (yo‘l, uy-joy, ijtimoiy ob'ektlar) qurish bilan bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar yuz berayotganini anglatadi.

Uchinchidan, mashina va asbob-uskunalar xaridining ko‘payishi texnologik modernizatsiya jarayonini aks ettirib, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.


To‘rtinchidan, 2,5 barobarlik o‘shish iste‘molga emas, investisiyaga tayangan o‘shish modeli shakllanayotganini ko‘rsatadi, bu esa barqaror rivojlanish uchun muhim omildir.

Beshinchidan, kapital xarajatlarining oshishi yangi ish o‘rinlari yaratilishi, aholi daromadlari o‘shishi va ichki bozor faollashuviga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Oltinchidan, bu holat davlat investisiya dasturlari, investisiya muhitini yaxshilash islohotlari hamda xususiy va xorijiy sarmoyalar jalb qilinishi samara berayotganini tasdiqlaydi.

Yettinchidan, 2024 yilda o‘shish sur'ati 131,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilda 110,5 foizga tushdi. 2021–2025 yillarda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar o‘shishi 7,6 foizli bandga oshgan bo‘lsa-da, 2023 yilga nisbatan 12,9 va 2024 yilga nisbatan 20,8 foizli bandga pasaygan. Bu investitsiyalar mutlaq hajmi ortib borgan bo‘lsa-da, o‘shish sur'atida sekinlashuv mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu holat yirik loyihalarning asosiy bosqichi yakunlanishi, tashqi iqtisodiy noaniqliklar, byudjet optimallashtirilishi va xususiy sektor faolligining muvaqqat susayishi bilan izohlanishi mumkin. Shuningdek, bu “yuqori baza effekti” bilan ham bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

So‘nggi besh yilda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 4,1 barobarga oshib, 422,1 trln. so‘mni yoki 33,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan (2-rasm). 2021-2025-yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining 4,1 barobarga oshishi va 422,1 trln so‘m (33,5 mlrd AQSH dollari)ga yetgani mamlakat iqtisodiyotida investision jozibadorlik sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatadi. Bunday yuqori o‘shish sur'ati, avvalo, investitsiya muhitini liberallashtirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va xalqaro moliyaviy institutlar hamda xorijiy investorlar bilan hamkorlikning kengayishi natijasi sifatida baholanishi mumkin.



2-rasm. 2021-2025-yillar mobaynida asosiy kapitalga yo‘naltirgan xorijiy investitsiya va kreditlar (trln. so‘mda) [9]

Mazkur dinamika quyidagi muhim iqtisodiy xulosalarni shakllantiradi. Birinchidan, kapital oqimlarining faollashuvi iqtisodiyotga tashqi moliyaviy resurslar jalb etilishini kuchaytirib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish imkonini oshirgan. Ikkinchidan, investitsiyaviy quvvatning ortishi xorijiy sarmoyalar hisobidan sanoat, energetika, qurilish va xizmatlar sohalarida yirik loyihalarni amalga oshirishga xizmat qilgan. Uchinchidan, investitsiya hajmining 4,1 barobarga o‘shishi mamlakatning xalqaro moliyaviy bozorlardagi imiji va investision reytinglari yaxshilanganini anglatadi. To‘rtinchidan, xorijiy investitsiyalar moliyaviy resurs bilan birga zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va ishlab chiqarish standartlarini ham olib kirib, texnologik transfer va innovasion rivojlanishga zamin yaratgan.

2025 yilda jalb qilingan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 33,4 foizi davlat kafolati ostidagi va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hissasiga to‘g‘ri kelgani investitsiya manbalari tarkibida qarz vositalari ulushi sezilarli ekanini ko‘rsatadi. Bu holat xorijiy kapital tarkibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar bilan bir qatorda qarz majburiyatlari ham muhim o‘rin tutayotganini anglatadi. Davlat kafolati ostidagi kreditlar strategik tarmoqlardagi infratuzilma va sanoat loyihalarini moliyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq kreditlar ulushining 33,4 foizga tengligi tashqi qarz barqarorligini ta‘minlash zarurligini ham ko‘rsatadi. Agar kreditlar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi va eksportbop loyihalarga yo‘naltirilsa, iqtisodiy o‘shish rag‘batlantiriladi, aks holda fiskal xatarlar yuzaga kelishi mumkin. Kafolatlanmagan kreditlar esa xususiy sektorning xalqaro moliya bozorlariga mustaqil chiqish imkoniyatlari kengayganini va investision muhitga ishonch ortib borayotganini anglatadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida asosiy kapitalga jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlarda ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. 2021–2022 yillarda mazkur tarmoqda o‘shish kuzatilgan bo‘lsa, 2023–2025 yillarda muayyan pasayish tendensiyasi qayd etilgan. Shunga qaramasdan, 2021–2025 yillar davomida jalb qilingan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘rtacha 37,4 foizi ishlab chiqarish sanoatiga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu tarmoqning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, jamiga nisbatan foizda [10]

Iqtisodiy faoliyat turlari	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Ishlab chiqarish sanoati	37,5	42,5	38,0	35,7	33,2
Elektr, gaz bilan ta‘minlash	12,1	14,1	19,8	19,5	17,1
Tog‘-kon sanoati	14,2	9,8	14,9	17,1	11,9
Qishloq xo‘jaligi	9,7	6,8	5,4	6,1	9,2

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 2-son 2026 yil

Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya	1,4	1,9	1,8	1,4	2,1
Qurilish	4,6	3,3	2,6	3,7	6,1
Tashish va saqlash	6,0	6,5	5,4	3,7	5,3
Axborot va aloqa	2,0	1,3	2,4	2,5	1,5
Sog'liqni saqlash	4,1	3,1	1,9	1,7	1,7
Boshqa faoliyat turlari	8,4	10,7	7,8	8,6	11,9
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgan investisiyalar ulushining yuqori bo'lishi mamlakatda sanoatlashuv jarayoni faol kechayotganini anglatadi. Bu iqtisodiy diversifikatsiya, qo'shilgan qiymat zanjirini chuqurlashtirish va eksport salohiyatini oshirish maqsadlariga mos keladi. 2021–2022 yillarda yuqori o'sish sur'ati investisiya muhitining barqarorligi va sanoat loyihalarining jozibadorligini ko'rsatgan bo'lsa, 2023–2025 yillardagi nisbiy pasayish tashqi iqtisodiy beqarorlik, global inflyatsiya, moliyaviy resurslar qimmatlashuvi hamda ayrim institusional cheklovlar bilan izohlanishi mumkin. Shunga qaramasdan, o'rtacha 37,4 foizlik ulushning saqlanib qolishi ishlab chiqarish sanoati investision siyosatning ustuvor yo'nalishi ekanini tasdiqlaydi. Bu tarmoq yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, texnologik modernizatsiya va eksport diversifikatsiyasiga xizmat qiladi hamda iqtisodiyotda multiplikativ ta'sirni kuchaytiradi.

2021–2025 yillarda elektr va gaz ta'minotiga yo'naltirilgan investisiyalar 5 foizli bandga, suv ta'minoti va kanalizatsiyada 0,7 foizli bandga, qurilishda 1,5 foizli bandga, boshqa xizmat sohalorida 3,5 foizli bandga oshgan. Bu infratuzilma va shaharsozlikni modernizatsiya qilishga investision e'tibor kuchayganini anglatadi. Shu bilan birga, tog'-kon (-2,3%), qishloq xo'jaligi (-0,5%), tashish va saqlash (-0,7%), axborot va aloqa (-0,5%) hamda sog'liqni saqlash (-2,4%) sohalorida pasayish kuzatilishi investisiyalarning qisman infratuzilma va servis yo'nalishlariga qayta taqsimlanayotganini ko'rsatadi. Demak, investisiyalar tarkibida tarkibiy transformatsiya yuz bergan.

2021–2025 yillarda asosiy kapitalga investisiyalar umumiy ijobiy dinamikaga ega bo'lgan. Biroq so'nggi yillarda o'sish sur'atlarining pasayishi investision faollik barqarorligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni talab etadi. Shu davrda xorijiy investisiya va kreditlar hajmining 4,1 barobarga oshishi tashqi kapital ishtirokining yangi bosqichga ko'tarilganini va investision muhit yaxshilanganini ko'rsatadi.

2025 yilda xorijiy investisiya va kreditlar tarkibida kredit resurslarining 33,4 foiz ulushga ega bo'lishi moliyalashtirish modeli diversifikatsiyalanganini anglatadi. Biroq bu tashqi qarz barqarorligini ta'minlash va investisiya samaradorligini oshirish zarurligini ham ko'rsatadi. Shu bois, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar ulushini ko'paytirish, qarz mablag'larini yuqori qo'shilgan qiymatli va eksportbop loyihalarga yo'naltirish strategik ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish sanoatiga jalb qilingan investisiyalar ulushining yuqori saqlanib qolishi mazkur tarmoq milliy iqtisodiyotda drayver soha sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. 2023–2025 yillardagi nisbiy pasayish qisqa muddatli kon'yunktura o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lib, strategik ustuvorlikka ta'sir ko'rsatmagan. O'zbekistonning xorijiy va ichki investitsiya salohiyatini yanada yaxshilash va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar samarali bo'lishi mumkin:

- Soliq va bojxona imtiyozlarini barqaror va shaffof tizim asosida soddalashtirish;
- Investorlarni huquqiy himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish;
- Lisenziya va ruxsatnomalarni elektron platforma orqali tezlashtirish;
- Yuqori qo'shilgan qiymatli va sanoat tarmoqlariga investisiyalarni faol jalb qilish;
- Energetika va kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilishga xorijiy kapitalni keng jalb etish;
- Texnologik parklar va industrial zonalarini rivojlantirish;
- Davlat-xususiy sheriklik va uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarini kengaytirish;
- Venchur kapital va investisiya fondlari orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish;
- Xalqaro reytinglarda milliy investision salohiyatni faol targ'ib qilish;
- Yangi iqtisodiy sektorlar (aqli sanoat, qayta tiklanuvchi energiya, biotexnologiya)ga kapital jalb etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
2. Uilyam F.Sharp, Gordon Dj. Aleksander, Djeffri V.Beyli. Investisii. – M.: INFRA-M, 2001. – S. 1-2.
3. Pestov D.Yu. Povysheniye investisionnoy privlekatelnosti promyshlennogo kompleksa regiona. Avtoref. diss. na soisk. uch. st. k.e.n. – M.: GOU DPO GASIS, 2007. – S. 21.
4. Straxova I.Yu. Metody povysheniya investisionnoy privlekatelnosti promyshlennosti regiona. – SPb.: Sankt-Peterburgskiy gosudarstvennyy inzhenerno-ekonomicheskii universitet, 2009. – S. 8, 12.
5. Mustafakulov Sh.I. Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini. Monografiya. – T.: Ma’aviyat, 2021. 16-b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
8. stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=611&id=4227&Itemid=100000000000 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
9. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi (yillik).
10. stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile.download&catid=611&id=4227&Itemid=100000000000

UDK:331.5

**AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH – ULAR BANDLIGINI
TA’MINLASHNING ASOSI**

**РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ЯВЛЯЕТСЯ ОСНОВОЙ ДЛЯ
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИХ ЗАНЯТОСТИ**

**DEVELOPING WOMEN’S ENTREPRENEURSHIP IS THE BASIS FOR ENSURING
THEIR EMPLOYMENT**

Kamoldinova Nargiza Anvarovna
Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ular bandligini ta’minlashning strategik yo‘nalishi sifatida o‘rganilgan. Globallashuv sharoitida mehnat bozori transformatsiyasi va raqobatning kuchayishi bilan bog‘liq holda aholining ijtimoiy-demografik guruhlari, xususan, ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish masalalari tahlil qilingan.

Ka’lit so‘zlar. ayollar tadbirkorligi, bandlik, iqtisodiy faollik, davlat qo‘llab-quvvatlashi, imtiyozli kreditlash, multiplikativ samara.

В данной статье развитие женского предпринимательства исследуется как стратегическое направление обеспечения занятости женщин. В контексте трансформации рынка труда и усиления конкуренции в условиях глобализации проанализированы вопросы повышения экономической активности социально-демографических групп населения, в частности, женщин.

Ключевые слова: женское предпринимательство, занятость, экономическая активность, государственная поддержка, льготное кредитование, мультипликативный эффект.